




**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI BIRINCHI PROREKTORI
B.N.BOBORAJABOV VA XALQARO ALOQALAR BO'LIMI BOSHLIG'I
S.S.SAIDAXMADOVLARNING ISPANIYANING KANTABRIYA
UNIVERSITETIGA TASHRIFI**

Joriy yilning 19-23 iyun kunlari Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi Xalqaro kredit mobilligi loyihasi doirasida hamkor universitetda dars berish uchun institutning Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha birinchi prorektori B.Boborajabov va Kantabriya universitetida o'quv-trening kursda ishtirok etish uchun institutning Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i S.Saidaxmadovlar Ispaniyaning Kantabriya universitetiga tashrif buyurdilar.

Xalqaro haftalikni Kantabriya universiteti Rektori Professor Ángel Pazos Carro kirish so'zi bilan ochib berdi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda institutimiz vakillari Professor Ángel Pazos Carro bilan ikki OTM o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati, istiqboldagi rejalar haqida suhbat olib bordilar. Shuningdek, Akademik mobillik asosida ikki OTM tomonidan bugungi kunga qadar o'nlab professorlar hamda talabalalar almashinuvi muvaffaqiyatli amalga oshirilgani hamda TKTIning ikki nafar tayanch doktorantlari bugungi kunda "Celtelle" asosida bir vaqtning o'zida Kantabriya universitetining PhD talabalari ekanligi alohida e'tirof etildi.





Shundan so'ng, rejaga muvofiq S.Saidaxmadov dunyoning 10 dan ortiq mamlakatlaridan tashrif buyurgan turli OTM vakillariga institutimizni keng ommaga tanitish, bugungi kunda taklif qilinayotgan o'quv hamda ilmiy xizmatlarni eksport qilish hamda institutning xalqarolashtirish strategiyasini yanada jadallashtirish maqsadida Toshkent kimyo-texnologiya institutida amalga oshirilayotgan keng xalqaro hamkorlik ishlari, ilmiy ishlanmalar, mavjud o'quv dasturlar hamda yurtimizda oliy ta'lim sohasidagi ulkan islohotlar haqida taqdimot qilib berdi.

Kelajakda barpo etilishi rejalashtirilgan Ilmiy-innovatsion kimyo klasteri, TKTIning undagi roli, shuningdek, oliy ta'limga xususan magistratura bosqichiga davlat granti asosida ayol-qizlarni jalb qilishda Hukumat tomonidan keng qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilayotgani ishtirokchilarda katta qiziqish va taassurot uyg'otdi.



Kunning ikkinchi yarmida TKTIning birinchi prorektori B.Boborajabov Kantabriya universiteti "Kimyoviy va biomolekulyar muhandislik" kafedrasida professor-o'qituvchilari hamda PhD talabalariga "Modifikatsiyalangan asfalt ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzusida seminar mashg'ulotlarini o'tib berdi. B.Boborajabov rahbarligida o'tgan seminar talabalar hamda kafedra vakillari o'rtasida interaktiv muloqot hamda savol-javob shaklida o'tkazildi. Unda ikki davlat asfalt ishlab chiqarish texnologiyalari, qo'llanilayotgan asfaltning keskin ob-havo sharoitlariga chidamliligi bunda dunyoning yetakchi davlatlari, xususan Xitoy Respublikasi tajribasi solishtirib chiqildi. Seminardan so'ng kafedra PhD talabalariga tomonidan olib borilayotgan ilmiy ishlar, laboratoriya sinovlari bilan tanishildi.

Dastur davomida B.Boborajabov Kantabriya universiteti "Kimyoviy va biomolekulyar muhandislik" kafedrasida PhD talabalarining joriy baholash jarayonlarida qatnashib PhD talabalarning ilmiy ish hisobotlari bilan yaqindan tanishib chiqdi.



Santander, Ispaniya
19-23 iyun 2023 yil

Б.Н. Боборатқодов
Ф. Умаров